

Bolalarni Muqobil Parvarish Qilish Xizmatlari Tarbiyalanuvchilarining Ijtimoiy-Psixologik Moslashuvi

*Sulaymanova Dildora Kodirovna*¹

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash.

Kalit so‘zlar: Fiziologik, Psixologik, Ijtimoiy, adaptatsiyaj.

Jahonda hozirgi kunda o‘z oilasidan ajralib qolgan va muqobil parvarishlashga ehtiyoji bo‘lgan bolalar soni 153 millionni tashkil etadi. O‘zbekistonda 33680 nafar ota-onalar qaramog‘idan ajralib qolgan bolalar bo‘lib, 2022 yilda 11162 nafar bolalar vasiylik oilalari va bolalar muassasalariga joylashtirilganligi, SOS – bolalar mahallalarida 154 nafar bolalar istiqomat qilishi qayd etilgan. Birlashgan Millatlar tashkiloti rahbariy hujjatlarida “bolalar eng zaif himoyalangan ijtimoiy guruh ekanligi, bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilish har bir davlat uchun global muammo hisoblanib, bolalik muammolarini radikal hal etish mas‘uliyati muhim vazifa qilib belgilanganligi ta‘kidlanadi”. Shu bois muqobil parvarishga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga o‘z vaqtida e’tibor qaratish, ularni har tomonlama yetuk, hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan, munosib hayot kechirishga qodir inson qilib yetilishida yordam berish nafaqat davlat organlari, balki bolalar mutaxassislari, avvalambor, psixologlar oldiga ulkan vazifalarni qo‘yadi. Ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan turli yoshdagagi bolalarni muqobil parvarish qilish organlari muhitiga ijtimoiy moslashuvini ta’minalash, mazkur toifa bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, jamiyatda qabul qilingan normalar, qadriyatlar va xulq-atvor shakllarini qabul qilish hamda o‘zlashtirish orqali ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini egallashiga ko‘maklashish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qolmoqda.

Mamlakatimizda ota-onalar qaramog‘isiz qolgan bolalarni, shuningdek, muqobil parvarish qilish muassasalarini – oilaviy bolalar uylari va SOS – bolalar mahallalarini tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bolalarning muqobil parvarish qilish xizmatlari muassasalariga moslashuvini yaxshilash, ijtimoiy yetimlikning oldini olish maqsadida har bir oiladagi moddiy-ma’naviy muhitni doimiy o‘rganib borish, bolalar va o‘smyrlar o‘rtasida jinoyatchilikka moyillikni keltirib chiqaruvchi oilaviy omillarga barham berish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va uni yangi bosqichga olib chiqish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish bo‘yicha ko‘plab g‘oyalar ilgari surilgan, inson qadrini yuksaltirish, bolalar huquqlarini himoya qilish, ayniqsa yetim va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning jamiyatga to‘la qonli moslashuvini belgilovchi determinantlarni aniqlash, bolalarni muqobil parvarish qilish xizmatlari ishini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli “2022-2026-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi katta o‘qituvchisi



yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 824-sonli hamda 2020-yil 21-noyabrdagi "Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 739-sonli Qarorlari, O'zR Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi "O'zbekiston SOS – bolalar mahallalari assotsiatsiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida"gi 738-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi[1].

Ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan, mehribonlik uylari va internat tipidagi bolalar muassasalari, bolalarni parvarish qilish muqobil xizmatlari tarbiyalanuvchilarining psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, mazkur toifa bolalarning ijtimoiy moslashuvi, ta'lim-tarbiya olish imkoniyatlari, ijtimoiy yetimlik profilaktikasi, mehribonlik uylari va muqobil parvarish xizmatlari muassasalari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, mazkur toifa bolalarni psixodiagnostik tadqiq etish usullari M.G.Davletshin, D.G.Muxamedova, Sh.R.Baratov, G.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, Z.T.Nishonova R.I.Sunnatova, M.X.Ganiyeva, N.G.Latipova, E.G'.G'oziyev, N.S.Safaev, N.G.Kamilova, G.V.Xrulnova, A.S.Turaqulova tomonidan ochib berilgan. Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari psixologlaridan ota-onasining qaramog'idan ajralgan bolalarda rivojlanishning ijtimoiy vaziyati muammolari bo'yicha Y.Langmeer, Z.Mateychev, J.Boulby, L.A.Vyatkin, M.Pringle, V.Beyslou, M.Yu.Kondrateva, N.N.Siresina, A.M.Prikojan, N.N.Tolstixlar bir qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar .

Bolalarni muqobil parvarish qilish muassasalari, xususan SOS – bolalar mahallasi tarbiyalanuvchilarining psixologik xususiyatlari L.L.Mityayev, S.Basyuk, Ye.S.Bruskova, V.V.Vojgov, I.V.Dubrovina, T.I.Dyakonova, O.I.Yevsteshina, J.M.Klarina, S.Kochkina, M.I.Lisitsina, V.S.Muxina, A.M.Nechayeva, A.M.Prikojan, G.V.Semya, N.N.Tolstix, T.I.Shalavina S.V.Dorogonko, A.A.Yarulov, L.N.Berejnovaning ishlarida o'z aksini topgan. Bolalarni muqobil parvarish qilish muassasalarida ota-onasiz qolgan bolalarga ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini tashkil etish bo'yicha I.A.Bobileva, V.A.Kovalevskiy, ijtimoiy yetimlikning kelib chiqish omillari va profilaktikasiga oid ma'lumotlar A.A.Rean, J.K.Dandarova, V.A.Prokofeva, I.F.Dementeva tadqiqotlarida keltirilgan, ota-onasiz qolgan bolalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish va ularga psixologik yordam ko'rsatish masalalari E.L.Fruxt, M.A.Xrikulova, Ye.V.Denisenko, V.Yu.Albitskiy, A.A.Baranov, T.A.Gasilovskaya, I.V.Dubrovina, V.S.Muxina, A.Sh.Shaxmanovaning ishlarida yoritilgan. Ijtimoiy moslashuv har bir inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Bu ishda, o'qishda yoki inson faoliyatining boshqa turlarida eng muhim jihatlardan biridir.


Inson dunyoga kelishining ilk kunlaridanoq jamiyatdagi boshqa insonlar orasida bo'ladi va ijtimoiy muloqotga kirishadi. Muloqot haqidagi birinchi tushunchani inson hatto gapirishni o'rganishdan avval egallaydi. Boshqa insonlar bilan o'zaro aloqa qilish vaqtida u egallaydigan subyektiv ijtimoiy tajriba, uning ajralmas shaxsiy tajribasiga aylanadi. Shaxs nafaqat ijtimoiy tajribaga ega bo'ladi, balki ijtimoiy munosabatlarda o'zining qadriyatlari, prinsiplari, pozitsiyasi va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan shaxsiy munosabatini rivojlantiradi. Bunda shaxs subyektiv ravishda turli rollarni bajarish uchun xar xil ijtimoiy aloqalarga kirishadi va shu orqali o'zining ijtimoiy dunyosini yaratadi [3].

Shaxsning ijtimoiylashuvi – bu uning ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirish orqali shakllanishidir [5]. Psixologik moslashuv esa shaxs ijtimoiylashuvining asosiy va yetakchi mexanizmlaridan biri hisoblanadi. O'z-o'zini shakllantirish, rivojlanish, to'laqonli ijtimoiy organizmga aylanish- shaxs moslashuvi jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi [6].



Adaptatsiya (lot. moslashuv)- organizm, shaxs va tizimning alohida ta'sir xarakteri yoki o'zgargan hayat tarziga moslashish jarayonidir [8]. "Adaptatsiya" (moslashuv) atamasi birinchi marta G.Auberg tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, nafaqat tabiiy, balki texnik va ijtimoiy fanlarda xam keng qo'llanilmoqda [11]. Biologik nuqtayi nazardan moslashish evolyutsiya orqali tushuntiriladi. Lamark atrof-muhitning kuchi haqida gapirar ekan, uni alohida organizmlardagi o'zgarishlarning sababi sifatida qo'yadi [12]. Lamark g'oyalari keyinchalik Ch.Darvinnin moslashish nazariyasida o'z aksini topdi. Fiziologiyada rivojlanish mexanizmlariga ko'ra, shoshilinch va uzoq muddatli moslashish farqlanadi [13].

Agarda "adaptatsiya" so'zining etimologiyasini o'rganilsa, lotin tilida "mos bo'lgan narsaga yaqinlashish" ma'nosini anglatadi [12]. Biologiyada adaptatsiya (moslashuv) tushunchasi aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Biroq, psixologiyada ushbu tushunchaga o'zgacha yondashiladi. Sababi, inson faqatgina tabiatning bir qismi bo'lib qolmay, balki ijtimoiy mavjudot xamdir [9]. Shu sababli insondagi passiv moslashuv jarayonlari jamiyatdagi shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarni ta'minlay olmaydi. Demak, insondagi moslashuv jarayoniga ikki xil yondashuv- xulq- atvor (ijtimoiy adaptatsiya) va shaxsiy (psixologik adaptatsiya) mavjud bo'lib, bu o'z- o'zidan yangi "ijtimoiy-psixologik moslashuv" atamasi kelib chiqishiga sabab bo'ladi [11].



Ijtimoiy-psixologik moslashuvni shaxs va ijtimoiy muhit o'rtafigi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida, xamda faoliyat natijalarining jamiyat talablariga ma'lum darajada mos kelishiga erishishga qaratilgan holatda o'rganish ijtimoiy psixologiya va shaxs psixologiyasining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu muammo ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan (F. B. Berezin, A. A. Nalchadjyan, A. A. Rean, S. I. Rozum va boshqalar) [4]. Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlanganidek, shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvining yagona konsepsiysi va uning nazariy modeli mavjud emasligini ta'kidlash lozim. S.A. Larionova fikriga ko'ra, yagona konsepsiyaning yaratilishi va insonning ijtimoiy-psixologik moslashuvini baholash uchun tegishli diagnostika mezonlari, shuningdek, tegishli psixodiagnostika vositalari ishlab chiqilishi kerak [10].

Bixevoirizm, ijtimoiy bixevoirizm, kognitivizm namoyondalari va Ch. Darvinnin biologik nazariyasi ijtimoiy- psixologik moslashuv tushunchasiga o'xshash qarashlarni taqdim etishgan. Unga ko'ra, asosiy e'tibor ijtimoiy- psixologik moslashuv jarayonining mexanizmiga qaratiladi. Masalan, ijtimoiy bixevoirizm namoyondalari ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonini shaxsning ehtiyojlari va ijtimoiy muhitning talablari o'rtafigi garmoniya sifatida ta'riflashadi [7].



Neobixeviorizm tarafdorlari asosiy e'tiborini ijtimoiy-psixologik moslashuvning ijtimoiy tomoniga qaratgan bo'lib, uni shaxs va atrof-muhit o'rtasidagi uyg'un o'zaro ta'sir holatiga erishish jarayoni sifatida talqin etiladi [4]. Shaxsning noto'g'ri moslashuvining asosiy sababi "noto'g'ri xatti-harakatlar" deb hisoblanadi. Bunda, muammolarning shaxsiy bo'lishi mumkinligi hisobga olinmaydi, ya'ni ijtimoiy muhit shaxs bilan uyg'un munosabatlar o'rnatish uchun qulay bo'lsa ham, uning ichki ziddiyatlari ijtimoiy moslashuvga olib kelishi mumkin [2].

E. Erikson, A. Maslou, G. Allport, R. Lazarus o'z ilmiy asarlarida ijtimoiy adaptatsiya tushunchasini o'rgangan bo'lib, ularning fikricha ijtimoiy-psixologik adaptatsiya bu-shaxsning ichki stimullari va atrof-muhit talablari o'rtasidagi gomeostatik muvozanatdir [15].

E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish konsepsiyasiga ko'ra, moslashuv jarayoning asosiy boshqaruvchisi bu- Egodir. E. Eriksonning fikricha Ego moslashuv jarayonida shaxsning butunligi va individualligini himoya qiladi, shaxsga ichki va tashqi xavfni oldindan ko'ra olish imkonini beradi va ijtimoiy talablarga o'z shaxsiy imkoniyatlarining qanchalik mosligi haqida ma'lumot beradi [14]. Psixosotsial moslashuvning samaradorlik darajasi shaxsning rivojlanish inqirozlarini hal qilishdagi muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lib, unga ijtimoiy muhit va shaxsning ichki individualligi ta'sir qiladi.

Globallashuv jarayonida jahonda ota-onada qaramog'idan ajralgan, ijtimoiy yetim hisoblangan bolalar ijtimoiylashuv muammosi, mazkur toifa bolalar bilan psixologik ishlarni tashkil etishning metodologik manbalarini yaratish va takomillashtirish hamda bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish zamonaviy psixologiya mutaxassislari oldiga ulkan vazifalarni qo'yadi.

Ota-onada qaramog'idan ajralgan bolalarda psixik deprivatsiya, yetishmovchilik kompleksi shakllanishi o'tgan asr tadqiqotlaridayoq bir qator olimlar tomonidan isbotlangan. Bolalarning oilasidan ajralib, boshqa ijtimoiy institut, ya'ni bolalar uylari, vasiylik oilalari va bolalarni muqobil parvarish qilish muassasalariga joylashishi mazkur muassasalarga yoki oilalarga ijtimoiy moslashuvini taqozo etadi va bu moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi nafaqat bolalarning o'zidan, balki mutaxassislardan ham alohida bilim, tajriba, sabr-toqat, psixologik taktni talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
4. Баратова Д.Ш. Махаллада аҳолининг турли гурухларига хизмат кўрсатиш//Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022.
5. Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека. – Л.: Наука, 2008. – 267 с.
6. Госсе О.В. Подготовка будущего учителя к социальному-педагогической деятельности //автореф. дис. на соискание ученой степени канд. пед. наук. Волгоград, 2006.-18 с.
7. Жуйкова Л.П. Практикум по социальной педагогике.- Новосибирск, 2002. 160 с.
8. Катаева Л.И., Ермоленко Г.В. Проблемы и перспективы допрофессиональной подготовки социальных педагогов и социальных работников // Теория и практика социальной работы : отечественный и зарубежный опыт. М. — Тула, 2003. — С. 312-317.
9. Корчак Я. Как любит ребенка : кн. о воспитании.- М., 2010. 493 с.



10. Кузнецова Л.В. Национально-культурная среда в общеобразовательной школе: теория и практика формирования. //автореф. дис. на соискание ученой степени д-ра. пед. наук. Чебоксары, 2001.
11. Максакова В.И., Полякова. Учимся договариваться.- М., 2018. 132 с.
12. Мудрик А.В. Введение в социальную педагогику.М., 2019. -368 с.
13. Налчаджян А.А. Социально-психологическая адаптация личности (формы, механизмы и стратегия).-М.: Ереван, 2018. – 237с.
14. Хелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер-пресс, 1997. – 608 с.
15. Boulton M. J., Smith P. K., Cowie H. (2010). Short-term longitudinal relationships between children's peer victimization/bullying experiences and self-perceptions evidence for reciprocity. Sch. Psychol. Int. 31 296–311. 10.1177/0143

